

„INKLYUZIV TA'LIM: DIALOG, TAHLIL, TAJRIBA”

Safarova Maftuna Sobirjon qizi

Profi university Navoiy filiali Boshlang'ich ta'lim 3- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim haqida umumiy tushuncha berilgan va O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni ko'rib chiqadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi har bir bolaning ehtiyojlariga mos ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash va jamiyatda tenglik, adolat yaratishdir. Shuningdek, Nuqsoni bor 2 bolani avvalgi va hozirgi holatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, nuqson, qonunlar, ijtimoiylashuv, hamkorlikdagi ta'lim, imkoniyati cheklangan, qulayliklar.

Аннотация. В данной статье дается общее представление об инклюзивном образовании и анализируются реформы, реализуемые в системе образования Узбекистана. Основная цель инклюзивного образования — предоставление образовательных возможностей, отвечающих потребностям каждого ребенка, и обеспечение равенства и справедливости в обществе. Также описывается прошлое и настоящее положение двух детей с ограниченными возможностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инвалидность, законы, социализация, совместное обучение, инвалидность, учреждения.

Abstract. This article provides a general understanding of inclusive education and reviews the reforms being implemented in the education system of Uzbekistan. The main goal of inclusive education is to provide educational opportunities that meet the needs of each child and create equality and justice in society. It also describes the past and present situations of 2 children with disabilities.

Keywords: inclusive education, disability, laws, socialization, collaborative education, disabilities, facilities.

Inklyuziv so'zining ma'nosi: inglizcha inklusif qo'shish birlashtirish ma'nolarini anglatadi. Inklyuziv ta'lim – jismoniy va aqliy jihatdan boshqa tengdoshlaridan orqada qolayotgan bolalarni sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda bitta sinfxonada qo'shib o'qitishdir. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Hamma ota-ona ham o'z farzandini sog'lom bolalar qatorida ko'rgisi keladi. Ularga o'xshab maktabda dars olishini, uylariga yaqin maktabga yuborishni istaydi, albatta. Inklyuziv ta'limni olib kirish fikri ilk bor 1996-yilda paydo bo'lgan. Inklyuziv ta'limning g'oyasi bolani ta'lim tizimiga olib kirish emas,

aksincha ta'lim tizimi bolalarni qamrab olishga tayyor bo'lishini anglatgan. O'quvchi qanday ekanidan, ya'ni sog'mi nuqsonlimi ta'limning ajralmas bo'lagidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida 86 ta ixtisoslashgan maktab-internatlari mavjud, ularga umumta'lim maktablari kabi e'tibor berib kelmoqda. Bunga isbot tariqasida 1991-yildagi „Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonun, 1992-yilda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, „Ta'lim to'g'risida”gi qonun, 2003- yildagi „Ta'lim hamma uchun” Milliy davlat rejasi va yana bir qator qaror va farmonlar bunga misol bo'ladi. O'zbekiston so'ngi yillarda o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga o'rgatish maqsadida oliy ta'limda fanlar tarkibiga „inklyuziv ta'lim”ni ham fan sifatida kiritdi. „2020-2025- yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi” tashabbuslarini ham alohida e'tirof etish mumkin. Ota-ona alohida ta'limga ehtiyoji bor farzandini inklyuziv ta'limga yo'naltirishdan avval shifokor ko'rigidan o'tkazgan holda, farzandining nuqson darajasi inklyuziv ta'limga mos kelishini tasdiqlatib, so'ngra yo'naltiradi. Ota-onalar o'z farzandlarini kuzatish va nazorat qilish uchun farzandi bilan birga darslarda qatnashishi mumkin. Pedagoglar hozirda imkoniyati cheklangan o'quvchilarga bilim berishda turli metodlar va interfaol o'yinlardan foydalanib darslarni samarali va qiziqarli o'tishmoqda. Sog'lom bolalar imkoniyati cheklangan bolalarni kamsitmasliklari, ustidan kulmasligi aksincha ularga yordam berishlari, ularni ham o'zlari qatorida ko'rishlari uchun bolalarga turli usullarda tushuntirishlar olib boriladi. Masalan: jamoalarga bo'lib, birgalikda ishlashni, turli do'stlik haqida, insoniylik mavzularida rivoyat yoki ertaklar o'qib berish va shunga o'xshash metodlar orqali o'quvchilar ongiga singdirish mumkin. Inklyuziv ta'limni samarali metodlaridan biri har bir o'quvchi bilan individual ishlash dasturini o'qituvchi o'zi uchun tuzib olishidir. Masalan: autizm kasalligi bilan og'rigan bolalarda ijodkorlik qobiliyati rivojlangan bo'lib, ularga darsda ijodkorlikni oshirib kreativlikni o'stirish orqali darsga jalb qilish mumkin. Jismoniy jihatdan cheklangan o'quvchilarga esa interfaol metodlarga qatnasha olmasliklarini hisobga olib, aqliy faoliyat bilan bog'liq mashqlar berish orqali darsga qiziqtirish va darsda qatnashishlarini ta'minlash mumkin. Inklyuziv ta'limga muxtoj bolalarga eng avvalo maktabga qatnashlari uchun transportlar tashkil qilish va ularning erkin harakatlanishlari uchun sharoitlar yaratib berish lozim. Hozirda maktablarda aravacha bilan harakatlanish uchun qulayliklar o'natilmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun maktablarda ularning psixologiyasi bilan shug'ullanuvchi maxsus shu yo'nalishda tahsil olgan psixolog kadrlar bilan ta'minlash, shu bilan bir qatorda mavjud pedagoglarni inklyuziv ta'lim haqidagi bilimlarini oshirish nuqsonli o'quvchilar bilan qanday shug'ullanish kerakligi haqida bilimlar berish bolani jamiyatga tezroq qo'shilishini ta'minlaydi. Inklyuziv maktablarda musiqa tugaraklari ko'proq joriy qilinsa va maxsus kadrlar bilan taminlansa va shu yo'l bilan o'z bilimlarini bolalarga berib borsalar ko'zlangan natijaga tezroq erishiladi. Inklyuziv ta'limning eng asosiy printsiplari – bu tenglik va adolat. Har bir bola o'zining ehtiyojlariga mos ta'lim olish huquqiga ega. O'zbekistonning taniqli ta'lim mutaxassisi, professor Shuhrat Abdullayevning „Ta'limda inklyuzivlik” maqolasida ta'kidlanishicha, inklyuziv ta'lim jamiyatda barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, har bir bola o'z imkoniyatlariga qarab ta'lim olishi, jamiyatga moslashishi uchun sharoitlar yaratish zarurati

mavjud [1]. Hozirda Navoiy shahar 6-maktabda ham aqliy sensorlarida nuqsoni bor 3 nafar bolalar tahsil olmoqda. Ularning 2 nafari 3 -sinfda 1 nafari esa 5-sinfda o'qiydi. O'quvchilarga maxsus o'qituvchi defektolog biriktirilgan bo'lib, o'quvchilar bilan ishlaydi, ularga dars jarayonlarini tushuntiradi. 1- o'quvchi (ismlarini aytmagan holda 1-2- o'quvchilar deb ketiladi) jismonan, ya'ni tayanch harakat tizimida muammosi yo'q, aqliy sensorlari va ko'rish sensorlari yaxshi rivojlanmagan. 2- o'quvchida esa ham aqliy ham jismonan nuqsonlari bo'lib, nutqi ham yaxshi rivojlanmagan. 1- o'quvchi 1dan 10 gacha bo'lgan sonlar ichidan 1, 2, 5 sonlarini yozishni o'rgangan. Sinfda o'zini tutishi yaxshi darsga va qolgan o'quvchilarga halaqit bermaydi. 1- o'quvchiga rasm chizish, musiqa, uy hayvonlari bilan o'ynash va ot minish yoqadi. Darsda ham iloji boricha uy hayvonlari rasmlaridan foydalanib, ularni sanash yoki nomini yozish usullari bilan sanash va yozishni o'rgatish mumkin. U ustozni bergan mashqlarni bajarishni yoqtiradi va rag'batlantirilgandan so'ng yana mashq berishini xoxlaydi. 2- o'quvchi esa boshqacha, u o'qituvchisi bergan vazifaga qaramaydi, o'zidan ovozlari chiqaradi, yozishni o'rganishni, sanashni o'rganishni xoxlamaydi. Qachonki ustoz qattiqqo'l bo'lsagina harakat qiladi. U darsga ozgina xalaqit qilgani sababli ba'zida, inklyuziv xonasida o'ziga biriktirilgan ustoz bilan rasmlar chizadi, jismoniy mashqlar bajarib kelishadi. O'quvchilar kelgan vaqtlari odamovi hech kim bilan gaplashmas edilar. Hozirda o'zini jamoat joyida qanday tutishni, odamlarga qo'shilishni o'rgandilar. O'quvchilar bu bolalarni juda yaxshi ko'rishadi. Shu sababli o'quvchilar bu ikki o'quvchiga har tomonlama yordam berishadi. Masalan, jismoniy tarbiya darsida kiyimlarini almashtirib qo'yishadi va birga o'ynashadi. Hattoki xojatxonaga ham olib borishni navbat qilib olishgan. Uylarida har bir o'quvchining ota-onalari bu bolalarning ustidan kulmasliglari aksincha yordam berishi kerakligini, mehribon bo'lishlari lozimligi tushuntiriladi. Maktabda ustoz darslarni turli metodlar bilan jamoalarga bo'lish orgali jamoa bo'lib ishlashni, bir-birlarini qo'llab quvatlashni o'rgatadi. Sog'lom bolalarga inklyuziv ta'lim shukronalik, hamdardlik, mehribonlik hislarini o'rgatsa, imkoniyati cheklangan bolalarga esa teng ta'lim olish imkoniyatini beradi va jamoada ishlashni, muloqatchanlikni oshishiga yordam beradi. Jamoa bo'lib ishlaganda o'qituvchi ham uning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarib borishini taminlaydi. Shuningdek, Inklyuziv ta'lim orqali milliy bilim oladilar, balki bir-biridan o'rganib, teng huquqli jamiyat qurishga hissa qo'shadigan barkamol shaxslar bo'lib voyaga yetishadi. Kelajakda ikkala bola ham yozishni, o'qishni, sanashni, jamoat joylarida o'zini tutishni o'rganib olishadilar va o'z tengdoshlari kabi jamiyatda o'z o'rinlarini topib ketishadi. Bunda ustozlar, o'quvchilar, butun maktab jamoasi va albatta jamiyatimizning yordami juda muhimdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekitonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish borasidagi chora - tadbirlar yildan yilga o'z natijalarini berib bormoqda. Inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan bola o'zining sog'lom tengdoshlariga qarab yaxshi ta'lim olishga, jamiyatga qo'shilishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim ularni kelajakdagi maqsadlarini tuzishga poydevor yaratadi. Inklyuziv ta'limda bola o'zini yolg'iz his qilmaydi, ijtimoiy muhitda o'zini qanday tutishni o'rganadi. Jamoa bilan ishlashni o'rganadi. Do'stlar orttiradi. Imkoniyati cheklangan bolalar ham jamiyatimizning ajralmas bo'lagi

ekanligini avvalo o'zimiz anglashimiz so'ngra farzandlarimizga ham tushuntirishimiz, his qildirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev Sh. Ta'limda inklyuzivlik. Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti nashriyoti 2018
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son